

## O‘ZBEKISTONDA YURIDIK SHAXSLARNI TUGATISH TO‘G‘RISIDAGI QONUNCHILIKNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

**Raxmonov Ramziddin Abdixalilovich**

*Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti magistranti*

*Tel: +998 99 940 41 70*

### ANNOTATSIYA

*Mazkur maqolamizda O‘zbekistonda yuridik shaxslarni tugatish to‘g‘risidagi qonunchilikning rivojlanish bosqichlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda mustaqillik yillaridan boshlab yuridik shaxslarni tugatish institutining shakllanishi, kodifikatsiya qilinishi, soddalashtirilishi hamda raqamlashtirish bosqichlariga o‘tish jarayoni yoritilgan. Shuningdek, Fuqarolik kodeksi, “To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida”gi qonun va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar asosida “bankrotlik” hamda “to‘lovga qobiliyatsizlik” tushunchalarining nazariy mazmuni ochib beriladi. Statistik ma‘lumotlar tahlili asosida respublikada yuridik shaxslarni tugatish jarayonlarining zamonaviy tendensiyalari, faoliyat yuritmayotgan korxonalar ulushi hamda tugatish dinamikasi o‘rganilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, yuridik shaxslarni tugatish jarayonini takomillashtirish, buxgalteriya hisobi metodologiyasini modernizatsiya qilish hamda tugatish bosqichlarida moliyaviy hisobotlarni tuzish bo‘yicha alohida uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish zarurligi asoslab beriladi.*

**KALIT SO‘ZLAR:** *yuridik shaxs, tugatish, bankrotlik, to‘lovga qobiliyatsizlik, Fuqarolik kodeksi, normativ-huquqiy hujjat, tadbirkorlik subyekti, moliyaviy hisobot, balans, raqamlashtirish, “yagona darcha”, kreditorlar, oraliq tugatish balansi, iqtisodiy islohotlar.*

### KIRISH

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli iqtisodiy islohotlar natijasida tadbirkorlik faoliyatini huquqiy tartibga solish, bozor munosabatlarini erkinlashtirish hamda biznes muhitini yanada qulaylashtirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Ushbu jarayonda yuridik shaxslarni tashkil etish bilan bir qatorda ularning faoliyatini tugatish institutini takomillashtirish ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Yuridik shaxslarni tugatish to‘g‘risidagi qonunchilik tizimi mustaqillik yillarida izchil rivojlanib, o‘z ichiga shakllanish, kodifikatsiya, soddalashtirish hamda raqamlashtirish bosqichlarini qamrab oldi. Bu jarayon Fuqarolik kodeksi, “To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida”gi qonun hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlar asosida takomillashib, yuridik shaxslarning tugatilish tartibini huquqiy jihatdan aniq va tizimli shaklga keltirdi. Mazkur

sohada “bankrotlik” va “to‘lovga qobiliyatsizlik” tushunchalari alohida o‘rin tutib, ular yuridik shaxsning iqtisodiy barqarorligi va moliyaviy holatini baholashda muhim huquqiy kategoriya sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, statistik ma‘lumotlar tahlili respublikada faoliyat yuritmayotgan va tugatilayotgan korxonalar sonining o‘zgaruvchan dinamikasini ko‘rsatadi, bu esa ushbu sohada huquqiy mexanizmlarni yanada takomillashtirish zarurligini anglatadi. Shuningdek, yuridik shaxslarni tugatish jarayonida buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlarni yuritishning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud bo‘lib, uzluksiz faoliyat prinsipi to‘liq qo‘llanilmaydigan holatlar metodologik yondashuvlarni qayta ko‘rib chiqishni talab etadi. Bu esa tugatish bosqichlarida moliyaviy axborotlarning ishonchliligi va shaffofligini ta‘minlash muhimligini yanada oshiradi. Shu nuqtayi nazardan, O‘zbekistonda yuridik shaxslarni tugatish to‘g‘risidagi qonunchilikning rivojlanish bosqichlarini kompleks o‘rganish, mavjud huquqiy mexanizmlarni tahlil qilish hamda ularni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish bugungi kunda dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida yuridik shaxslarni tugatish to‘g‘risidagi qonunchilik mustaqillik yillarida iqtisodiy tizimning tubdan o‘zgarishi, rejali iqtisodiyotdan bozor munosabatlariga o‘tish, tadbirkorlik faoliyatini erkinlashtirish hamda huquqiy davlat qurish jarayonlari bilan bevosita bog‘liq holda shakllandi va rivojlanib bordi. Ushbu yo‘nalishdagi huquqiy islohotlar yuridik shaxslarning tashkil etilishi bilan bir qatorda ularning faoliyatini tugatish jarayonini ham tizimli tartibga solishga qaratildi. Chunki iqtisodiy muhitda korxonalarining faoliyatini boshlashi qanchalik muhim bo‘lsa, ularning to‘g‘ri va huquqiy asosda tugatilishi ham shunchalik ahamiyatlidir. Shu sababli yuridik shaxslarni tugatish instituti bir necha tarixiy bosqichlar davomida takomillashib, bugungi kunda zamonaviy huquqiy mexanizmga aylangan.

Mustaqillikning dastlabki yillarida, ya‘ni 1991–1996-yillarda yuridik shaxslarni tugatish tizimi asosan sobiq ittifoq davridan meros qolgan huquqiy normalar asosida amalga oshirilgan bo‘lib, bu davrni shakllanish bosqichi sifatida tavsiflash mumkin. Ushbu bosqichda milliy qonunchilik hali to‘liq shakllanmagan, huquqiy asoslar yetarli darajada tizimlashtirilmagan edi. Yuridik shaxslarni tugatish asosan muassislarning qarori yoki sud qarori asosida amalga oshirilgan bo‘lib, jarayon murakkab, ko‘p bosqichli va kuchli davlat nazorati ostida kechgan. Bozor iqtisodiyotiga xos yangi institutlar hali to‘liq shakllanmaganligi sababli, tugatish jarayonlari ko‘proq ma‘muriy yondashuvga asoslangan edi.

1996–2000-yillarni esa kodifikatsiya bosqichi sifatida baholash mumkin, chunki aynan shu davrda milliy huquqiy tizimni shakllantirish va yagona huquqiy asos yaratish jarayoni jadallashti. 1996-yilda O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining qabul qilinishi yuridik shaxslarni tugatish institutining huquqiy asosini mustahkamladi. Kodeksning 53–55-

moddalarida yuridik shaxslarni tugatishning asosiy qoidalari, ixtiyoriy va majburiy tugatish asoslari, tugatish komissiyasini tuzish tartibi hamda kreditorlar talablarini qondirish mexanizmi aniq belgilab berildi. 1999-yilda “Bankrotlik to‘g‘risida”gi qonunning qabul qilinishi esa to‘lovga qobiliyatsiz korxonalarni tugatishning alohida huquqiy institutini shakllantirdi. Shu davrdan boshlab “bankrotlik” va “to‘lovga qobiliyatsizlik” tushunchalari nafaqat iqtisodiy, balki huquqiy kategoriya sifatida ham keng qo‘llanila boshlandi va korxonalarni tugatish jarayonida asosiy mezonlardan biriga aylandi.

2000–2015-yillar oralig‘i soddalashtirish va tizimlashtirish bosqichi sifatida namoyon bo‘lib, bu davrda asosiy e‘tibor tadbirkorlik subyektlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ma‘muriy to‘siqlarni kamaytirish hamda tugatish jarayonlarini yengillashtirishga qaratildi. Ixtiyoriy tugatish tartiblari sezilarli darajada soddalashtirildi, davlat organlari bilan hisob-kitob qilish jarayonlari aniq muddatlar bilan belgilandi. Tadbirkorlik subyektlarini ixtiyoriy tugatish tartibini tartibga soluvchi maxsus nizomlar qabul qilinib, bu jarayonning huquqiy aniqligi va tizimliliği oshirildi. Ushbu bosqichda kreditorlar huquqlarini himoya qilish, moliyaviy intizomni kuchaytirish hamda tugatish jarayonining shaffofligini ta‘minlashga alohida e‘tibor qaratildi.

2015-yildan hozirgi kungacha bo‘lgan davr esa raqamlashtirish va liberallashtirish bosqichi sifatida tavsiflanadi. Bu bosqichda yuridik shaxslarni tugatish jarayoni tubdan modernizatsiya qilinib, elektron tizimlar asosida amalga oshirilmoqda. “Yagona darcha” tamoyilining joriy etilishi natijasida barcha davlat organlari bilan hisob-kitoblar yagona elektron platforma orqali bajariladigan bo‘ldi. Shuningdek, yuridik shaxs bo‘lgan tadbirkorlik subyektlarini ixtiyoriy tugatish to‘g‘risidagi e‘lonlar endilikda ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organlarning rasmiy veb-saytlariga joylashtirilishi belgilandi, bu esa jarayonning ochiqligi va shaffofligini sezilarli darajada oshirdi. Faoliyat yuritmayotgan yoki uzoq muddat moliya-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirmagan korxonalarni tugatish tartibi ham soddalashtirildi, ular ma‘lum muddat ichida faoliyatini tiklamasa, ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organ qarori bilan tugatilishi mumkinligi qonunchilikda mustahkamlandi.

Shu bilan birga, 2022-yilda qabul qilingan “To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida”gi qonun ushbu sohadagi huquqiy mexanizmlarni yanada takomillashtirdi. Ushbu qonunga ko‘ra, to‘lovga qobiliyatsizlik sud tomonidan e‘tirof etiladigan holat bo‘lib, u kreditorlar talablarini qondira olmaslikni anglatadi. Qonunda kuzatuv, sud sanatsiyasi, tashqi boshqaruv va tugatishga doir ish yuritish kabi tartib-taomillar belgilangan bo‘lib, ular korxonalarni iqtisodiy inqirozdan chiqarish yoki tartibli tugatishni ta‘minlashga xizmat qiladi. Statistik tahlillar ham shuni ko‘rsatadiki, respublikada faoliyat yuritmayotgan va tugatilayotgan korxonalar soni yildan-yilga o‘zgarib bormoqda. Ayrim hududlarda, xususan Toshkent shahri, Toshkent va Andijon viloyatlarida korxonalar sonining ko‘pligi raqobat darajasining yuqoriligini va shu

bilan birga tugatilayotgan korxonalar ulushining ham sezilarli ekanligini ko‘rsatadi. Bu esa iqtisodiy muhitning dinamikligi hamda korxonalar faoliyatining barqarorligi doimiy o‘zgaruvchan ekanligini anglatadi.

Bundan tashqari, yuridik shaxslarni tugatish jarayonida buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlarni yuritishning o‘ziga xos jihatlari mavjud bo‘lib, uzluksiz faoliyat prinsipi tugatish bosqichida to‘liq qo‘llanilmaydi. Tugatish jarayonida aktivlar bozor qiymatida baholanadi, kreditorlar talablarini qondirish esa qonunchilikda belgilangan navbat asosida amalga oshiriladi. Bu esa hisob siyosatini o‘zgartirish zaruratini keltirib chiqaradi hamda tugatish balanslarini tuzishda maxsus metodik yondashuvlarni ishlab chiqishni talab etadi. O‘zbekistonda yuridik shaxslarni tugatish to‘g‘risidagi qonunchilikning rivojlanishi bosqichma-bosqich takomillashib, murakkab ma‘muriy jarayondan zamonaviy, raqamlashtirilgan va shaffof huquqiy tizimga aylangan. Bu esa tadbirkorlik subyektlari faoliyatini huquqiy jihatdan tartibga solish, kreditorlar manfaatlarini himoya qilish hamda iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

**1-jadval. O‘zbekistonda yuridik shaxslarni tugatish qonunchiligining rivojlanish bosqichlari**

Bosqich	Davr	Asosiy xususiyatlar	Qonunchilikdagi o‘zgarishlar
<b>Shakllanish bosqichi</b>	1991–1996-yillar	Sovet tizimidan chiqish, huquqiy asoslarning shakllanishi	Tugatish ma‘muriy va sud qarori asosida, tizim to‘liq shakllanmagan
<b>Kodifikatsiya bosqichi</b>	1996–2000-yillar	Yagona huquqiy tizim shakllanishi	Fuqarolik kodeksi, bankrotlik instituti joriy etildi
<b>Soddalashtirish bosqichi</b>	2000–2015-yillar	Tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash	Ixtiyoriy tugatish soddalashtirildi, tartiblar tizimlashtirildi
<b>Raqamlashtirish bosqichi</b>	2015–hozirgacha	Elektron tizim va “yagona darcha”	Tugatish jarayoni raqamlashtirildi, ochiqlik oshirildi

O‘zbekistonda yuridik shaxslarni tugatish to‘g‘risidagi qonunchilik mustaqillik yillarida izchil takomillashib, murakkab ma‘muriy-huquqiy jarayondan zamonaviy, tizimli va raqamlashtirilgan huquqiy institutga aylangan. Ushbu jarayon iqtisodiy islohotlar, bozor munosabatlarining chuqurlashuvi hamda tadbirkorlik subyektlari faoliyatini huquqiy jihatdan tartibga solish zarurati bilan bevosita bog‘liq holda shakllangan. Tadqiqot natijalari shuni

ko‘rsatadiki, yuridik shaxslarni tugatish qonunchiligi bir necha bosqichda rivojlangan: shakllanish, kodifikatsiya, soddalashtirish hamda raqamlashtirish bosqichlari orqali bugungi zamonaviy holatga kelib yetgan. Har bir bosqichda Fuqarolik kodeksi, “Bankrotlik to‘g‘risida”gi qonun hamda “To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida”gi qonun kabi normativ-huquqiy hujjatlar muhim rol o‘ynagan. Shuningdek, “bankrotlik” va “to‘lovga qobiliyatsizlik” tushunchalarining nazariy va amaliy jihatlari tahlili ushbu institutning iqtisodiy-huquqiy mohiyatini chuqurroq ochib berdi. Statistik ma’lumotlar esa respublikada tugatilayotgan va faoliyat yuritmayotgan korxonalar dinamikasi o‘zgaruvchan ekanligini ko‘rsatadi, bu esa huquqiy mexanizmlarni yanada takomillashtirish zarurligini tasdiqlaydi. Bundan tashqari, tugatish jarayonida buxgalteriya hisobi prinsiplarining o‘ziga xosligi, xususan uzluksiz faoliyat prinsipining qo‘llanilmasligi va aktivlarni bozor qiymatida baholash zarurati metodologik yondashuvlarni qayta ko‘rib chiqishni talab etadi. Umuman olganda, yuridik shaxslarni tugatish qonunchiligini yanada takomillashtirish, raqamlashtirish jarayonlarini kengaytirish hamda moliyaviy hisobotlarni tuzish bo‘yicha aniq uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish bugungi kunda dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

#### ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. – Toshkent, 1996.
2. O‘zbekiston Respublikasi Qonuni “To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida” (O‘RQ-763-son), 2022-yil 12-aprel.
3. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi ma’lumotlari: yuridik shaxslarni tugatish bo‘yicha statistik tahlillar.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlik subyektlarini tugatish tartibini takomillashtirishga oid farmon va qarorlari (2015–hozirgacha).
5. “NORMA” axborot-huquqiy portali materiallari: yuridik shaxslarni tugatish va bankrotlik bo‘yicha sharhlar.
6. Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudi statistik hisobotlari (2023 -yil).
7. Zotova M.V. Bankrotlik instituti va uning iqtisodiy mohiyati bo‘yicha ilmiy qarashlar.
8. Dusaeva E.V., Kurmanova A.X. Korxonalar bankrotligi jarayonida axborot ta’minoti masalalari.
9. Chalenko R.V. “Bankrotlik” va “to‘lovga layoqatsizlik” tushunchalarining iqtisodiy-huquqiy tahlili.
10. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi (amaldagi tahrir).